

JADID MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Ilxom I. To'xtanazarov

*FarDU harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik
sikli katta o'qituvchisi, dotsent, zahiradagi mayor*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining kelib chiqish sabablari, tarixiy zarurati va bu harakatning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotdagi o'rni keng yoritib berilgan. Jadidchilik harakati nafaqat milliy o'zlik va ozodlik uchun kurash, balki xalqni ilm-fan, madaniyat va taraqqiyot sari yetaklash, eski va zamonaviy qarashlar o'rtasidagi kurash natijasi sifatida baholangan. Jadid mutafakkirlarining ilmiy merosi bugungi mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning g'oyalari bugungi kunda ham yosh avlodni vatanparvarlik, tafakkur va yangicha dunyoqarash ruhida tarbiyalashda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Muallif jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari, ularning Turkiston ijtimoiy-ma'naviy hayotini isloh etish yo'lidagi xizmatlari, shuningdek, ilmiy merosini o'rganishning dolzarbligini chuqur tahlil qiladi. Shu boisdan ham jadid mutafakkirlarining ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish va bugungi jamiyat tarbiyasida undan foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy masala ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, jadidlar, Turkiston, ma'rifatchilik, milliy ozodlik, yangilanish, ilmiy meros, ta'lim islohoti, mustamlakachilik, ijtimoiy-siyosiy harakat, milliy g'oya, taraqqiyot, Usuli qadim, madaniy taraqqiyot, xalq ma'naviyati.

KIRISH

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo'lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar mahsuldir. XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha "jadid" so'zidan olingan bo'lib "yangi" degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan

kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o'zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakatshakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, "Usuli qadim" ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko'rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma'rifatchilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatiningvujudga kelishi asta-sekin bo'lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o'lkadagi maxalliy xalqning ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo'ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarkala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar etishib chiqdi.

O'zbekistonda Jadidchilik harakati, 19-asrning oxirida O'zbekiston bo'ylab keng qamrovli rivojlanuvchi ijtimoiyo-siyosiy g'oyalar taraqqiy etdi. Bu harakat ma'naviy, madaniyat va siyosiy yangilanishlarga qarshi turadigan, 19-asrning oxiridan 20-asr

boshlarigacha O'zbekistonning modernizatsiyasi, rivojlanishi va demokratik islohotlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy guruh edi. Jadidchilik harakati O'zbekistonning xalqaro aloqalari, ilmiy hayot kengaytirish va yangi madaniy qadriyatlarni qabul qilishga qaratilgan islohotlar haqida tahqiqotlar olib boradi. Bu harakatning muhim maqsadi o'zaro aloqalar o'rnatish, yangi texnologiyalarni yaratish va o'zaro samarali munosabatlarni rivojlantirish edi. Jadidchilik taraqqi va rivojlanishning sabablaridan biri bo'lgan millatlararo munosabatlari, ilmiy madaniyat yondoshi va ijtimoiy qadriyatlar asosida o'zining o'ziga xos texnologiyasini o'zlashtiradi. Jadidchilik harakati O'zbekistonning eng ko'p talab qilini organlari, ilmiy va ijtimoiy yo'nalishlari rivojlanishida eng muhim ahamiyatga ega edi va bu harakatning samaralari hozirda ham hisobga olindi. Bu harakatning o'ziga xos kuchli muhit, jamiyat tashkiloti va ilmiy salohiyatli a'zolariga, qo'llariga va fikrlariga hammasiga aloqasi bo'lgan jigarrangili qo'llangan maqbuliyatda rivojlandi.

Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

Birinchi bosqich XX asrning 20-yillariga oid bo'lib, unga Buxoro jadidlarining etakchilari Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev[1], shuningdek, sovet tadqiqotchilari A.Samoylovich, I.Umnyakov, G.Safarovning [2] asarlarini kiritish mumkin. Bu tadqiqotlarda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va mazmun-mohiyati aniq ko'rsatib berilgan.

Ikkinchi bosqich XX asrning 30-80-yillarini o'z ichiga olib, bu bosqichda jadidchilik harakatini xolis o'rganish uzoq muddatga to'xtab qoldi. Ye.Fyodorov, A.Arsharuni, X.Gabidullin, L.Klimovich, A.Pyaskovskiy, O.Eshonov, T.Qoriniyozov, A.Gordiyenko, T.Ernazarov tomonidan yozilgan asarlarda jadidchilik "reaksion" harakat sifatida baholandi, jadid adabiyoti va matbuoti burjua millatchilari ruhi bilan sug'orilgani ta'kidlandi [3]. M.Vahobov, I.Braginskiy, K.Qosimbekov, X.Mirzozoda, X.Voxidov, B.Iskandarov, T.To'xtametov, S.Zimanov, S.Karimiy, G'.Abbos, Z.Kastelskaya va boshqalar kommunistik mafkura ta'siri ostida o'z asarlarida Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar partiyasining tuzilishi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi, Turkistonda sovet tuzumiga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik harakatlari haqida ma'lumot berishgan. Shuningdek,

xorijdagi turkistonliklarni “vatan xoini”, “sotqin”, “burjua millatchisi”, “xalq dushmani” sifatida talqin etildi [4]. Bu davrda yaratilgan kollektiv monografiyalar va fundamental tadqiqotlarda ham masalaga bir tomonlama yondoshuv ustunlik qilgan [5]. Shunday qilib, sovet davrida Turkistondagi jadidchilik harakatlari noxolis yozilib, atayin soxtalashtirilgan.

Uchinchi bosqich XX asrning 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlarini o‘z ichiga olib, sovet jamiyatida boshlangan qayta qurish, oshkoralik ta’sirida jadidchilikka baho berishda biroz o‘zgarish ko‘zga tashlandi. F.Qosimov, Sh.Turdiyev, P.Mirzaahmedova, D.Rashidova tadqiqotlarida Turkiston xalqlari ijtimoiy hayotida jadidchilikning tutgan o‘rni haqida ijobiy fikrlar bildirila boshlandi [6].

Mustaqillik yillarida tarixchilar, huquqshunoslar, faylasuflar va adabiyotshunoslar tomonidan Turkiston jadidlari faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Taraqqiyparvarlik harakati mohiyatini ochib berishda tarixchilar F.Qosimov, D.Alimova, S.A’zamxo‘jayev, R.Abdullayev, Q.Rajabov, D.Ziyoyeva, S.Inoyatov, U.Rashidov, L.Muhammadjonova, Sh.Hayitov, S.Shodmonova, N.Polvonov, R.Tursunov, G.Ostonova, A.Isoqboyev, K.Raxmonov, B.Hasanov, T.Qozoqov, O.Rashidov, F.Temirov, I.Naimov, U.Hayitov, Sh.Xonqulov, T.Nuriddinov, Muhammedova [7]; huquqshunoslar D.Tashkulov, M.Ergasheva, N.Azizov [8]; faylasuflar B.Ergashev, Z.Ahmedova, Sh.G‘oyibova, S.Minavarov [9] va adabiyotshunos olimlar B.Qosimov, O.Sharofiddinov, N.Karimov, Sirojiddin Ahmad, Sh.Rizayev, U.Dolimov, Z.Abdurashidov, A.G‘ulomov [10] asarlari asosiy o‘rin tutadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. Moskva: SSSR xalqlarining markaziy nashriyoti, 1926; Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент, 1926.
2. Умняков И. К истории новометодной школы в Бухаре // Бюллетень Средне-Азиатского Государственного Университета. Выпуск 16. – Ташкент.
3. Аршаруни А., Габидуллин Х. Очерки панисламизма и пантюркизма в России. – Москва, 1931; Климович Л. Ислам в царской России. Очерки. – Москва, 1936.

4. Касымбеков К. Социально-экономическое и политическое положение Ферганы в конце XIX и начале XX веков. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1966.
5. Ўзбекистон ССР тарихи. III том. Масъул муҳаррир И. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971; История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. Ред. коллегия П.В. Волобуев и др. – Москва: Наука, 1971.
6. Касымов Ф. Некоторые вопросы новейшей историографии народных революций в 1920 году в Хорезме и Бухаре // Общественные науки в Узбекистане. (Ташкент), 1990, № 1. – С. 41-45; Мирзаахмедова П., Рашидова Д. К изучения джадидского движения // “Общественные науки в Узбекистане”. 1990, № 7. – С. 32-34.
7. Алимова Д., Голованов А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари. 1917-1990 йиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000; Алимова Д. История как история, история как наука. Т.1. История и историческое сознание. – Ташкент: Узбекистан, 2008; Ўша муаллиф: История как история, история как наука. Т. 2. Феномен джадидизма. – Ташкент: Узбекистан, 2009; Алимова Д. Жадидчилик феномени. – Тошкент: Akademnashr, 2022.
8. Ташкулов Д. Основные направления политико-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX – первой четверти XX вв. Автореф дисс... док. юрид. наук. – Ташкент, 1995; Эргашева М. Абдурауф Фитратнинг сиёсий-хуқуқий қарашлари. Юридик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. – Тошкент, 2002.
9. Эргашев Б. Идеология нatsионально-освободительного движения в Бухарском эмирате. – Ташкент: Фан, 1991; Ғойибова Ш. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. – Тошкент, 1996.
10. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспарали. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1992; Ўша муаллиф: Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002; Ўша муаллиф: Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.